

“Tenge Bank” ATB tomonidan emissiya qilingan UZCARD EMV so‘mdagi korporativ plastik kartochkasiga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida
_____ -sonli SHARTNOMA

Toshkent sh.

« ____ » _____ 2021 y.

“Tenge Bank” ATB, bundan buyon matnda – “Bank” deb yuritiladi, 2021 yil 25 dekabrda 01/12-sonli Vakolatnoma asosida faoliyat yurituvchi RKO va DO boshqarmasi boshlig‘i F.A. Kuranbekov nomidan bir tomondan va _____ tashkiloti, bundan buyon matnda – “Tashkilot” deb yuritiladi, _____ asosida faoliyat yurituvchi _____ nomidan ikkinchi tomondan quyidagilar to‘g‘risida mazkur SHartnomani tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1 Mazkur Shartnoma Bank tomonidan emissiya qilingan UZCARD EMV so‘mdagi korporativ plastik kartochkasidan foydalanib o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish bo‘yicha Bank va Tashkilot o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soladi.

2. TA'RIFLAR

Karta	– Bank tomonidan chiqarilgan (emissiya qilingan) va Karta egasiga kartochka hisobvarag‘i bo‘yicha bir necha marta operatsiyalar o‘tkazish imkoniyatini ta‘minlaydigan UZCARD EMV so‘mdagi korporativ plastik kartochkasi.
Karta egasi	– Tashkilot tomonidan vakolat berilgan, nomiga karta chiqarilgan, ushbu kartadan mazkur SHartnomaga asosan foydalanadigan shaxs.
Kartochka hisobvarag‘i	– Tashkilotning bank hisobvarag‘i, undagi pul mablag‘laridan Karta orqali foydalanish mumkin. Kartochka hisobvarag‘i holati to‘g‘risida joriy axborot Protsessing markazida aks ettiriladi.
Protsessing markazi	– «UZCARD» banklararo to‘lov tizimida protsessor funksiyasini amalga oshiradigan va banklar uchun xizmatlar majmuini, shu jumladan UZCARD EMV dasturiy-apparat majmui asosida banklar kartalari emissiyasi va ekvayringini ta‘minlaydigan, shuningdek to‘lovlar provayderi funksiyasini bajaradigan YAgona umumrespublika protsessing markazining tarkibiy bo‘linmasi.
YAgona umumrespublika protsessing markazi	– bank kartalarining birlamchi emissiyasi, avtorlashtirilishi, ishlanishi va tranzaksiyalar kliringini, «UZCARD» banklararo to‘lov tizimi doirasida banklar o‘rtasida axborot hamkorligini va ularga bank kartalari bo‘yicha amalga oshirilgan banklararo tranzaksiyalar to‘g‘risidagi axborotning tasdiqlash uchun uzatilishini ta‘minlaydigan YAgona umumrespublika protsessing markazi.
«UZCARD» banklararo to‘lov tizimi	– elektron shaklda naqd pulsiz to‘lovlarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan, huquqiy me‘yorlar, normativ hujjatlar, dasturiy-texnik qarorlar va tegishli tashkiliy-texnik infratuzilma majmuiga asoslangan va kartalar emissiyasini amalga oshiradigan banklarni, tovarlar yoki xizmatlar xaridorlariga xizmat ko‘rsatuvchi banklarni, hisob-kitob bankini va YAgona umumrespublika protsessing markazini yagona tizimga birlashtiradigan hududiy taqsimlangan to‘lovlar tizimi.
Avtorlashtirish	– «UZCARD» banklararo to‘lov tizimi texnologiyasiga asosan telefon, elektron yoki boshqa aloqa vositalari orqali karta bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun karta emitentdan ruxsat olish tartiboti.
Hisob-kitob banki	– «UZCARD» banklararo to‘lov tizimida o‘zaro hisob-kitoblar o‘tkazilishini ta‘minlaydigan hisob-kitob organi funksiyasini bajaradigan bank.
Emitent	– kartalar emissiyasini amalga oshiradigan, emissiya qilingan kartalarga egalik huquqiga ega bo‘lgan va o‘z nomidan Karta egasi va ekvayer oldida kartalardan

	foydalanilgan holda hisob-kitoblar bo'yicha huquqlarni amalga oshirishga doir majburiyat oladigan bank.
Ekvayer	– savdo-servis korxonasi bilan tranzaksiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshiradigan bank.
Savdo-servis korxonasi	– ekvayer bilan tuzilgan shartnoma asosida bank kartalari bo'yicha xizmatlar va mahsulotlar sotishni amalga oshiradigan xo'jalik sub'ekti (yuridik shaxs yoki yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxs).
POS-terminal	– savdo-servis korxonasi xizmatlari yoki mahsulotlari uchun bank kartalari bo'yicha to'lovlarni qabul qilish va Protssessing markazi bilan real vaqt rejimida amalga oshirilgan tranzaksiyalar bo'yicha cheklarni shakllantirish elektron qurilmasi.
O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish terminali	– o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish rejimida xizmatlar to'lovi uchun naqd pul mablag'larini qabul qilish funksiyasi (infokioskalar) va naqd pul mablag'larini olish opsional funksiyasi (bankomat) bilan ta'minlangan xizmatlar uchun bank kartalari bo'yicha to'lovlarni qabul qilish elektron qurilmasi.
Slip	– bank kartasi bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hamda operatsiyalar summasi, operatsiyalar turi, operatsiyalar amalga oshirilgan sana to'g'risidagi axborotni, shuningdek ushbu slipni shakllantirgan karta va terminalni identifikatsiyalash imkonini beradigan axborotni o'z ichiga oladigan POS-terminal yoki o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish terminali kvitansiyasi.
Tranzaksiya	– Karta bo'yicha amalga oshiriladigan tovarlar yoki xizmatlar uchun to'lovlar. Tranzaksiyalarning tasdiqlanishi Karta egasi tomonidan PIN-kod yordamida amalga oshiriladi.
Tashkilotning vakolatli vakili	– Tashkilot rahbari, Tashkilotning Bosh buxgalteri yoki Karta egasi.
Bank tariflari	– Karta bo'yicha tranzaksiyalar amalga oshirilganida Tashkilot tomonidan Bank foydasiga to'lanadigan komissiya haqi. Bank bir tomonlama tartibda Bank tariflarini o'zgartirishga haqli.
Vaucher	– qaytarish uchun chek – Bank tomonidan belgilangan shaklda savdo-servis korxonasi tomonidan rasmiylashtiriladigan to'lovni qaytarish to'g'risidagi bildirish blanki.
To'lov qaytarilishi	– Tashkilot tomonidan Karta bo'yicha xarid qilingan mahsulotlar yoki xizmatlar rad qilinishi oqibatida, Tashkilotning kartochka hisobvarag'iga mablag' o'tkazish uchun Bank tomonidan belgilangan shaklda savdo-servis korxonasi tomonidan tasdiqlangan va savdo-servis korxonasi tomonidan amalga oshiriladigan pul mablag'larining qaytarilishi. To'lovning qaytarilishi naqd pul shaklida amalga oshirilishi mumkin emas.
Stop varag'i	– Tashkilotning karta yo'qotilishi (o'g'irlanishi va h.k.) oqibatida rasmiy murojaatidan so'ng Bank tomonidan operatsiyalar o'tkazilishi taqiqlanadigan Kartalar ro'yxati. Tashkilot Bank tomonidan belgilangan qoidalarga asosan Kartani Stop varag'iga kiritish uchun ariza beradi.
Bank yo'riqnomalari	– Karta va boshqa uskunalardan foydalanish tartibotlari va qoidalarini belgilaydigan hujjatlardan iborat bo'lib, ushbu hujjatlarga muvofiq Bank Tashkilotga Karta bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi. Bank yo'riqnomalariga rioya qilish Tashkilot uchun ham, Bank uchun ham majburiy hisoblanadi. Bank yo'riqnomalari quyidagi manzil bo'yicha Bank saytida joylashtiriladi: www.tengebank.uz . Bank bir tomonlama tartibda Bank yo'riqnomalariga o'zgartishlar kiritishga haqli.
PIN-kod	– kartochka hisobvarag'ida hisobga olinadigan pul mablag'laridan foydalanish huquqini tasdiqlaydigan, shuningdek Kartada saqlanadigan axborotdan uchinchi

	shaxslar foydalanishini cheklaydigan Kartani shaxsiy identifikatsiyalash raqami. PIN-kod maxfiy ma'lumot hisoblanadi va sir saqlanishi kerak. PIN-kodning tegishlicha saqlanishi uchun Tashkilot javobgar bo'ladi.
--	--

3. UMUMIY QOIDALAR

3.1 Tashkilot karta olish uchun Bankda talab qilib olguncha saqlanadigan so'mdagi asosiy depozit hisobvarag'iga ega bo'lishi kerak.

3.2 Tashkilotning Karta chiqarish uchun arizasi asosida Bank mazkur Shartnoma imzolangan kundan e'tiboran 3 (uch) bank kuni mobaynida Tashkilotga kartochka hisobvarag'ini ochadi, Karta chiqaradi va uni Tashkilotning vakolatli vakiliga topshiradi.

3.3 Tashkilot va Karta egasining o'zaro munosabatlari Tashkilotning ichki tartib va qoidalari bilan belgilanadi.

3.4 Kartaning amal qilish muddati eng ko'pi bilan 3 (uch) yilni tashkil etadi. Karta unda qayd etilgan tegishli yil oyi tugaguncha amal qiladi. Kartaning amal qilish muddati tugaganidan so'ng, shuningdek almashtirilganida yoki Bank talabiga asosan Karta Bankka qaytarilishi kerak. Kartadan O'zbekiston Respublikasi hududida savdo-servis korxonasi bilan mahsulotlar yoki xizmatlar uchun naqd pulsiz shaklda hisob-kitoblar uchun foydalaniladi. Kartadan ish haqi to'lovlari va boshqa ijtimoiy xususiyatli to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek naqd pul mablag'larini olish uchun foydalanish taqiqlanadi.

3.5 Tashkilotning kartochka hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'iga foizlar qo'shib hisoblanmaydi.

3.6 Bank Karta chiqarilganligi, Karta qayta chiqarilganligi va kartochka hisobvarag'i ochilganligi uchun Bankning amaldagi tariflariga asosan haq oladi. Bank tranzaksiyalar ishlanishi uchun komissiya haqini oladi. Komissiya haqi Karta egasining kartasi bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar summasidan Bankning amaldagi tariflariga asosan olinadi.

3.7 Karta chiqarilishida Tashkilot kartochka hisobvarag'iga Karta egasi tomonidan karta bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilishi uchun kerakli summani o'tkazadi.

3.8 Kartaning yopilishi Tashkilotning yozma arizasiga asosan amalga oshiriladi.

3.9 Bank yo'qotilgan (o'g'irlangan va h.k.) Karta almashtirilishini Tashkilot tomonidan Karta yo'qotilganligi (o'g'irlanganligi va h.k.) to'g'risida ariza berilgan kundan e'tiboran 3 (uch) bank kuni mobaynida amalga oshiradi.

3.10 Mazkur Shartnoma bo'yicha barcha hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida (so'm) amalga oshiriladi.

4. TARAFLAR MAJBURIYATLARI

4.1 Bank quyidagi majburiyatlarga ega:

4.1.1 Karta bo'yicha amalga oshirilgan kartochka hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'ini kamaytiruvchi barcha tranzaksiyalar summasiga, shuningdek qayd etilgan tranzaksiyalar amalga oshirilganligi uchun Bankka komissiya haqlari summasiga Tashkilotning kartochka hisobvarag'ini debetga yozib qo'yish;

4.1.2 Tashkilotning asosiy hisobvarag'idan naqd pulsiz shaklda tushadigan pul mablag'larini Tashkilotning kartochka hisobvarag'iga yoki savdo-servis korxonasi tomonidan taqdim qilingan vaucherlar summasiga yozib qo'yish;

4.1.3 Tashkilotning arizasi asosida Bankning amaldagi tariflariga asosan kartochka hisobvarag'idan ko'chirmani taqdim qilish;

4.1.4 Tashkilot tomonidan Karta yo'qotilganligi (o'g'irlanganligi va h.k.) to'g'risida ariza berilganidan so'ng 24 (yigirma to'rt) soat mobaynida Karta bo'yicha xizmatlar taqdim qilinishini to'xtatish va uni Bankning "Stop varag'iga" joylashtirish;

4.1.5 Karta egasiga Bank yo'riqnomalari va tariflarida nazarda tutilgan Kartadan foydalanish masalalari va hisob-kitoblar texnologiyalari bo'yicha maslahat berish;

4.1.6 Bank yo'riqnomalari yoki tariflari o'zgartirilgan holatda, Tashkilotni qayd etilgan o'zgartishlar joriy qilingungacha 5 (besh) bank kunidan kechiktirilmagan holda ommaviy axborot vositalari orqali, shuningdek Bankning ixtiyoriga ko'ra tanlangan har qanday boshqa usul yordamida xabardor qilish;

4.1.7 mazkur Shartnoma bekor qilinganida, Karta bo'yicha oldingi amalga oshirilgan tranzaksiyalar bo'yicha barcha o'zaro hisob-kitoblar o'tkazilganidan so'ng, kartochka hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'ini Tashkilotning asosiy hisobvarag'iga qaytarish.

4.2 Tashkilot quyidagi majburiyatlarga ega:

4.2.1 mazkur Shartnoma va Bank yo'riqnomalari shartlarini mustaqil ravishda bajarish va ularning Karta egasi tomonidan bajarilishini ta'minlash;

4.2.2 Karta egasini mazkur Shartnoma va Bank yo'riqnomalari shartlari bilan tanishtirish;

4.2.3 Kartadan kartochka hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'i doirasida va Kartaning amal qilish muddati mobaynida foydalanish;

4.2.4 PIN-kodni Tashkilotning moliyaviy va tijorat siri hisoblangan har qanday boshqa axborot darajasida sir saqlash;

4.2.5 Bankning amaldagi tariflariga asosan Karta bo'yicha amalga oshirilgan tranzaksiyalar uchun komissiya haqini to'lash;

4.2.6 Tashkilot va Karta egasi tomonidan mazkur SHartnoma shartlari buzilishi bilan bog'liq xarajatlarni to'lash, shuningdek mazkur SHartnoma va Bank yo'riqnomalari shartlariga rioya qilinmaganligi tufayli Bank yo'qotishlari o'rnini to'ldirish;

4.2.7 Karta yo'qotilganligi (o'g'irlanganligi va h.k.) to'g'risida Bankka (+998 71) _____ telefon raqamlari orqali darhol xabar berish. Og'zaki xabardor qilinganidan so'ng bir ish kuni mobaynida Bankka mazkur Karta yo'qotilganligi (o'g'irlanganligi va h.k.) to'g'risidagi arizani taqdim qilish;

4.2.8 mazkur Shartnoma bekor qilingan holatda, Kartani Bankka ishga yaroqli holatda qaytarish va kartochka hisobvarag'ini yopish. Karta yo'qotilganligi (o'g'irlanganligi va h.k.) oqibatida Kartani qaytarish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, Bankning amaldagi tariflariga asosan komissiya haqini to'lash;

4.2.9 o'z rekvizitlari o'zgarishligi haqida mazkur o'zgarishlar amalga oshirilgan kundan e'tiboran 5 (besh) bank kuni mobaynida Bankka ma'lum qilish;

4.2.10 Tashkilot yopilgan va uning faoliyati to'xtatilgan holatda, shuningdek Bankning birinchi talabi bo'yicha Kartani qaytarish.

5. TARAFLAR HUQUQLARI

5.1 Bank quyidagilarga haqli: Bank yo'riqnomalari va tariflarini bir tomonlama tartibda o'zgartirish; zarur hollarda, Karta taqdim qilinishini talab qilish, shuningdek uni Tashkilotdan olib qo'yish, bu haqda uni mo'ljallangan olib qo'yish sanasigacha eng kamida 3 (kun) oldin xabardor qilish.

5.2 Quyidagi holatlarda Tashkilotning kartasini vaqtincha blokirovka qilish, agar:

- Bank tomonidan belgilangan shaklda Tashkilotning tegishli topshirig'i berilgan bo'lsa;
- Tashkilot yoki Karta egasi tomonidan mazkur Shartnoma yoki Bank yo'riqnomalari shartlari buzilishi aniqlangan bo'lsa;
- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda talab qilib olguncha saqlanadigan asosiy hisobvaraqa blokirovka qilingan.

5.3 Tashkilotdan qarz summalari va Tashkilot yoki Karta egasi tomonidan mazkur Shartnoma yoki Bank yo'riqnomalari shartlari buzilishi bilan bog'liq xarajatlar Bankka to'lanishini talab qilish.

5.4 Tashkilot quyidagilarga haqli:

5.5 kartochka hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'i to'ldirilishini o'z asosiy hisobvarag'idan pul mablag'larini naqd pulsiz o'tkazish orqali amalga oshirish;

5.6 mazkur Shartnomaning 5.1.2-bandiga asosan, shuningdek Bank yo'riqnomalarida nazarda tutilgan boshqa harakatlar natijasida Karta vaqtincha blokirovka qilingan holatda, Kartaning avtorlashtirilishini amalga oshirish;

5.7 Kartani olishda PIN-kodni tayinlash orqali Kartani mustaqil ravishda faollashtirish;

5.8 Karta bo'yicha amalga oshirilgan tranzaksiyalar va kartochka hisobvarag'i holati to'g'risida ko'chirma olish;

5.9 POS-terminallar yoki o'z-o'ziga xizmat ko'rsatuvchi terminallar orqali PIN-kodni o'zgartirish;

5.10 Tashkilot savdo-servis korxonasidan amalga oshirilgan tranzaksiyalar to'g'risida ma'lumotlar olinadigan paytgacha Bankdan to'lov qaytarilishini talab qilishga haqli emas.

6. TARAFLAR JAVOGBARLIGI

6.1 Taraflar javobgarligi mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan holatlarda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

6.2 Bank Tashkilot tomonidan Karta yo'qotilganligi (o'g'irlanganligi va h.k.) to'g'risida ariza berilgan paytdan e'tiboran 24 (yigirma to'rt) soat mobaynida Karta uchinchi shaxs tomonidan foydalanilgan holatda, har qanday moliyaviy yo'qotishlar uchun javobgar bo'lmaydi.

6.3 Mazkur Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarning bajarilmasligi uni bekor qilish uchun asos bo'ladi, bunda bekor qilish payti Taraflar o'rtasida alohida tartibda kelishib olinadi.

6.4 Mazkur Shartnomani bajarishda Taraflardan biri O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarini buzgan holatda, ikkinchi Taraf buning uchun javobgar bo'lmaydi.

7. MAXFIYLIK

7.1 Tashkilot, Bank kabi mazkur Shartnoma bo'yicha axborot maxfiyligini ta'minlash uchun javobgar bo'ladi.

7.2 Bank va Tashkilot tomonidan bir-biriga taqdim qilingan mazkur SHartnoma predmeti bilan bog'liq axborot maxfiy hisoblanadi. Taraflar olinadigan axborotning uchinchi shaxslarga oshkor qilinishi oldini olish uchun barcha kerakli va etarlicha choralar ko'radilar.

8. FORS-MAJOR

8.1 Taraflar mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarining bajarilishi davlat boshqaruv va nazorat organlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan cheklovchi-taqqilovchi xususiyatli hujjatlar yoki chora-tadbirlar qabul qilinishi yoki engib bo'lmas kuch vaziyatlari yuz berishi oqibatida mumkin bo'lmagan taqdirda, ushbu majburiyatlarning bajarilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydilar. Bunday vaziyatlar, jumladan, quyidagilardan iborat: urush harakatlari, zilzila, yong'inlar, ommaviy tartibsizliklar, epidemiyalar yoki boshqa ofatlar (Taraflar aybisiz yuzaga kelgan, biroq ular tomonidan o'z majburiyatlari bajarilishiga ta'sir etadigan texnikaning ishlashni rad qilishi, dasturiy ta'minot, elektr ta'minot va ma'lumotlar uzatish tizimlarining ishdan chiqishi) hamda Taraflar ta'sir ko'rsatish imkoniyati bo'lmagan va yuzaga kelganligi uchun javobgar bo'lmaydigan vaziyatlar, shuningdek ushbu holat davlat vakolatli organlari tomonidan hujjatlar bilan tasdiqlangan holatda. Taraflar bunday turdagi engib bo'lmas kuch vaziyatlari ta'sirlari boshlanganligi va tugaganligi to'g'risida zudlik bilan yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

8.2 Yengib bo'lmas kuch vaziyatlari vakolatli organlar tomonidan qonunda belgilangan tartibda tasdiqlangan holatda fors-major hisoblanadi.

9. NIZOLARNI HAL QILISH

9.1 Mazkur Shartnoma shartlari Taraflar tomonidan bajarilishi jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolar dastlabki tartibda Taraflar tomonidan o'zaro maqbul qarorga kelish maqsadida muzokaralar orqali ko'rib chiqiladi.

9.2 O'zaro kelishuvga erishilmagan holatda, da'volar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda sud organlarida ko'rib chiqish uchun taqdim qilinadi.

10. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATLARI, UNI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

10.1 Mazkur Shartnoma Taraflar tomonidan imzolangan kundan e'tiboran qonuniy kuchga kiradi va Taraflardan biri uni bekor qilish istagini bildirgungacha muddatsiz xususiyatga ega bo'ladi.

10.2 Taraflar tomonidan Kartaga xizmat ko'rsatishga tegishli barcha oldingi imzolangan shartnomalar va bitimlar mazkur Shartnoma tuzilgan paytdan e'tiboran haqiqiy bo'lmaydi.

10.3 Mazkur Shartnomaga barcha o'zgartishlar va qo'shimchalar yozma ravishda amalga oshirilgan va vakolatli shaxslar tomonidan imzolangan holatda haqiqiy bo'ladi, Bank tariflari o'zgarishlariga tegishli qismi bundan mustasno.

10.4 Mazkur Shartnoma Taraflardan birining tashabbusiga asosan ikkinchi Taraf mazkur SHartnoma quyidagi shartlarda bekor qilinishi mo'ljallangan sanagacha 10 (o'n) bank kunidan oldin yozma shaklda xabardor qilingan holatda bekor qilinishi mumkin:

- Bank tomonidan Tashkilotga berilgan Karta Bankka ishga yaroqli holatda qaytarilgan;
- Tashkilot mazkur SHartnoma bo'yicha Bank oldidagi barcha majburiyatlarini bajargan va qarzdorlikka ega emas;
- Tashkilot kartochka hisobvarag'idan pul mablag'lari talab qilib olguncha saqlanadigan so'mdagi asosiy depozit hisobvarag'iga qaytarilganligi to'g'risida to'lov topshiriqnomasini Bankka taqdim qilgan.

10.5 Mazkur Shartnoma bekor qilinganida, Karta chiqarilganligi uchun haq, tranzaksiya ishlanganligi uchun komissiya haqi va Bank tariflariga asosan boshqa to'lovlar Tashkilotga qaytarilmaydi.

11. YAKUNIY QOIDALAR

- 11.1 Mazkur Shartnoma Taraflarning har biri uchun bittadan bir xil yuridik kuchga ega aynan o'xshash ikki asl nusxada tuzildi.
- 11.2 Mazkur Shartnomaga muvofiq yoki u bilan bog'liq yuboriladigan barcha bildirish xatlari va xabarlar yozma shaklda rasmiylashtirilishi kerak. Buyurtma xati bilan yuborilgan yoki Taraflarning quyida qayd etilgan yuridik manzillariga shaxsan etkazib berilgan, olinganligi tasdiqlangan holatda ular tegishli ravishda topshirilgan hisoblanadi.
- 11.3 Mazkur Shartnoma bilan tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

12. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI

"Tenge Bank" ATB	
Manzili: Toshkent sh., Yashnobod tumani, Parkent ko'chasi, 66-uy. Tel.: (+998 71) 203-88-99	Manzili:
Bank rekvizitlari:	Bank rekvizitlari:
H/r: 19925 000 4 0000 1176 004 MFO: 01176 STIR: 207297973 OKED: 64190 e-mail: info@tengebank.uz	H/r: _____ MFO: _____ STIR: _____ OKED: _____

<hr/>	<hr/>
Imzo: _____	Imzo: _____
M.O'.	M.O'.

Mas'ul ijro etuvchi: _____